



**AXBOROT HURUJIGA QARSHI MA'NAViy – AXLOQIY  
IMUNITET HOSIL QILISHDA OILA PSIXOLOGIYASI  
FAMILY PSYCHOLOGY IN BUILDING SPIRITUAL-MORAL  
IMMUNITY AGAINST INFORMATION ATTACK**

**Семейная психология в формировании духовно-морального  
иммунитета против информационных атак**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*aniq va tabiiy fanlar kafedrası*

*texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi*

***Tulanova Muhayyo Baxtiyorjon qizi***

[tolanovamuhayyo@gmail.com](mailto:tolanovamuhayyo@gmail.com)

[TEL: +998942353034](tel:+998942353034)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish masalasi ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy omillar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Dunyo axborot maydonida yoshlarning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadigan salbiy axborot oqimlari tobora ortib bormoqda. Shuning uchun yoshlarning axborot xurujlariga qarshi immunitetini hosil qilish, ularni ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash va media savodxonligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu Tadqiqotda oilaviy tarbiya, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va diniy-ma'rifiy omillarning kelajak avlodning axborot xurujlaridan himoya qilinishidagi roli va undagi ahamiyati o'rganiladi. Shuning bilan birga zararli axborot ta'sirining oldini olish bo'yicha samarali pedagogik va psixologik yondashuvlar tahlil qilinadi*

**Abstract:** *This article analyzes the issue of protecting young people from information attacks from the perspective of spiritual, educational and moral factors. Negative information flows that affect the mental state of young people are increasingly increasing in the world information space. Therefore, the formation of immunity of young people against information attacks, their upbringing on the basis of spiritual values, and increasing media literacy are urgent issues. This study examines the role*



*and significance of family upbringing, the education system, the media, and religious and educational factors in protecting the future generation from information attacks. At the same time, effective pedagogical and psychological approaches to preventing the impact of harmful information are analyzed*

**Аннотация:** В данной статье анализируется проблема защиты молодежи от информационных атак с точки зрения духовных, образовательных и моральных факторов. В мировом информационном пространстве все больше усиливаются негативные информационные потоки, влияющие на психическое состояние молодежи. Поэтому формирование иммунитета молодежи к информационным атакам, их воспитание на основе духовных ценностей и повышение медиаграмотности являются актуальными вопросами. В исследовании рассматривается роль и значение семейного воспитания, системы образования, средств массовой информации, а также религиозно-образовательных факторов в защите будущего поколения от информационных атак. Одновременно анализируются эффективные педагогические и психологические подходы к предотвращению воздействия вредной информации.

**Kalit so'zlar:** Axborot hurujlari, ma'naviy- ma'rifiy imunitet, globallashtiruv, texnologik tamoyillar, befarqlik, tarbiya, ta'lim, pedagogik yechim, psixologik yechim, savodxonlik, zamonaviy media, oila, jamiyat, ahloq normalari.

**Keywords:** Information attacks, spiritual and educational immunity, globalization, technological principles, indifference, upbringing, education, pedagogical solution, psychological solution, literacy, modern media, family, society, moral norms.

**Ключевые слова:** информационные атаки, духовная и образовательная неуязвимость, глобализация, технологические принципы, безразличие, воспитание, образование, педагогическое решение, психологическое решение, грамотность, современные СМИ, семья, общество, моральные нормы.

Asosiy qism.

Oilada sog'lom muhitning mavjudligi farzandlarda axborot va psixologik imunitetni hosil qilish muhim omildir. Darxaqiqat oila milliy va umuminsoniy



qadryatlarni shakllantiruvchi boshlangich maktab desak mubolag'a bo'lmaydi. Oilada muhit yaxshi va sog'lom bo'lsagina psixologik jihatdan va qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun qulay sharoit ham bo'ladi. Yoshlarni ma'naviy jihatdan boy qilsakgina ularning turli g'arazli oqimlardan va befoyda bo'lgan axborotlardan saqlay olamiz va ularning ildizlariga bolta uramiz. Oilada axborot madaniyatini, yaniki mediasavodxonlikdan uning qonun qoidalariga amal qilgan holatda foydalanish orqali erishiladi. Psixologik himoya esa ota-ona va farzand o'rtasidagi samiyimiy suhbat va qo'llab- quvvatlashlar. Farzandga bo'lgan ishonchni bildirish orqali erishiladi. Farzandlar bilan dildan suhbatlar ularning ota-onasi bilan yaqin munosabatda bo'lishga, hech narsani ularni ogohlantirmasdan qilishga undamaydi. Aksinch qo'pollik, keragidan ortiq tergash, hohishlariga qarshi borish, qilgan ishlaridan, harakatlaridan noroziliklar esa bolani ota-onadan uzoqlashtiruvchi omillar hisoblanadi. Samiyimiy muloqot va qo'llab- quvvatlashlar bolaning o'z- o'zini qadrlashni oshiradi va tashqi salbiy axborotlarga qarshi chidamliligini mustahkamlaydi. Bu borada mediasavodxonlik ham oilada internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, madaniyatni shakllantirish, olingan ma'lumotlarga tanqidiy yondashishni o'rgatish bugungi kundagi dolrزاب mavzudir. Bugungi kunda yoshlarning imunitetini shakllantirish uchun turli usullardan foydalanib kelinmoqda.

1. Profilaktik muloqot: Farzandlar bilan ijtimoiy tarmoqlardagi turli buzg'unchi g'oyalar va ulardagi asl maqsadlari haqida ochiq suhbatlar o'tkazish.

2. Ogohlikni tarbiyalash: Har bir o'qigan yoki eshitgan ma'lumotiga kor-ko'rona ishonmaslik uning manbasini yaxshilab tekshirib keyin tahlil qilishlik ko'nikmasini rivojlantirish.

3. Namuna bo'lish: Ota- onaning axborot iste'mol madaniyati bolalar uchun asosiy o'rnak bo'lib xizmat qiladi.

Oiladagi ijobiy psixologik muhit farzandlarni nafaqat axloqiy balki ruhiy jihatdan ham sog'lom qilib tarbiyalashga, yot g'oyalarga qarshi " ma'naviy qalqon" hosil qilishga imkon beradi.

Xulosa.



Oila muhiti sog'lom, undagi a'zolar yaniki ota-onalar sog'lom turmush tarziga, odob- axloqli mediasavodxonligiga ega bo'lsa, ota-ona va farzand o'rtasida o'zaro ahillik, ishonch, qiziqish va muammolarni birga hal qilsagina shu muhitda tarbiyalanayotgan farzandlar har xil noto'ri oqimlardan, noto'g'ri ma'lumotlarga asoslanib xulosa chiqarishdan yiroq bo'ladi. Yoshlarni ma'naviy jihatdan boy qilsakkina, ularni har taraflama qo'llab tursakkina ularda yetarlicha imunitet hosil bo'ladi. Bu borada imunitetni shakillantirish uchun turli usullardan foydalanib kelmoqda. Oilada psixologik muhit yaxshi bo'lsagina yot g'oyalarga va turli oqimlarga burilib ketish uchramaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fazliddin Xaydarov, Nargiza Xalilova "Umumiy psixologiya" 2023 Darslik
2. P.I Ivanov, M. E Zufarova "Umumiy psixologiya" 2015
3. S. R Mirzayeva Sh. R. Samanova, O, U Avlayev "Umumiy psixologiya"2013
4. N. S. Jo'rayev, S. A. Saliyeva, N. A. Sultonova "Psixologiya tarixi"2022